

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ЧЕЛЯБИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ КУЛЬТУРЫ**

**Музыкальное искусство и  
образование:  
традиции и инновации**

**2019**

УДК 378  
ББК 74.48  
Р76

**Редакционная коллегия:**

О.Х.Хамидов, доктор экономических наук, профессор;  
В.Я.Рушанин, доктор исторических наук, профессор;  
Ш.Ш.Олимов, доктор педагогических наук, профессор;  
Б.С.Сафаралиев, доктор педагогических наук, профессор;  
Б.Х.Мадримов, кандидат педагогических наук, профессор  
А.П.Хмелева, кандидат педагогических наук, доцент

**Музыкальное искусство и образование: традиции и инновации:** сб. материалов междунар. науч. конф./под общ. ред. О.Х.Хамидова; сост. А.П.Хмелева, К.Ф. Абдуллаев –Бухара: БухГУ, 2019. – 320 с.

В сборник включены материалы исследований профессорско-преподавательского состава, молодых ученых, Бухарского государственного университета, Челябинского государственного института культуры, ВУЗов Казахстана и Узбекистана.

Предназначен для ученых, преподавателей вузов, практических работников учреждений социально-культурной сферы, студентов средних специальных и высших учебных заведений.

© Бухарский государственный университет, 2019  
© Челябинский государственный институт культуры, 2019



**Уважаемые коллеги, организаторы  
и участники международной научной конференции!**

Я рад приветствовать всех Вас от имени коллектива Бухарского государственного университета, пожелать благополучия и научно-творческого успеха плодотворной работе данной конференции.

Стремление интегрироваться в мировое образовательное пространство, освоить лучшие зарубежные стандарты и технологии подготовки специалистов обусловило обращение отечественной высшей школы к богатому опыту, накопленному образовательными системами развитых стран, расширило масштабы сотрудничества с лучшими вузами мира, в том числе России.

Совместная деятельность по совершенствованию образовательных программ, учебно-методического, литературного и информационного обеспечения образовательного процесса с Челябинским государственным институтом культуры, продолжающаяся уже более 10 лет, способствует развитию и расширению наших дружественных и теплых отношений.

Надеюсь, что наш опыт работы в сфере науки, образования и культуры и дальнейшее взаимодействие будут благоприятны и эффективны, совместные проекты послужат новым импульсом расширению связей между Узбекистаном и Россией.

Желаю всем участникам конференции творческого вдохновения, новых смелых идей и плодотворной работы во благо культуры!

Ректор  
Бухарского государственного университета  
доктор экономических наук, профессор  
**Обиджон Хафизович Хамидов**

самостоятельности человека во всех сферах его жизнедеятельности (работа, семья, досуг). Современный человек особенное значение придает габитусу - внешнему оформлению своего образа, тем самым более тщательно подходит к выбору профессии, досугу и т.д. Иными словами, современный человек становится человеком потребляющим (зачастую без ограничений).

В связи с этим в явлении культурно-спортивных праздничных событий можно отметить возникновение технологий организаций развивающегося досуга семьи (семейные спортивные состязания, соревнования), содействие самореализации молодежи (молодежные спортивные фестивали), развитие карьеры потребностей личности средствами социально-культурной деятельности (появление специалистов в области организации культурно-спортивных событий – менеджеров, организаторов, постановщиков, режиссеров) и многое другое.

Таким образом, можно сделать вывод, что современный контекст, определяющийся рассмотренными выше факторами (условиями) динамических преобразований общества, культуры и социально-культурной деятельности в целом, обуславливает направление научного изучения и исследования такого явления как культурно-спортивные праздничные события.

### Литература

1. Кассисер Э. Избранное. Опыт о человеке / Э. Кассисер – М.: Гардарика, 1998. – 784 с. – (Лики культуры).
2. Степанова Т.П. Диверсификация досугового общения: методология, теория, технологии / Т.П. Степанова; Челябин. гос. акад. культуры и искусств. – Челябинск, 2011. – 379 с.
3. Торсуева И.Г. [Контекст](#) // [Лингвистический энциклопедический словарь](#). — М.: СЭ, 1990. — С. 238—239.
4. Флиер А.Я. Культурогенез / А.Я. Флиер. – М, 1995. – 234 с.
5. Яновский Р.Г. Социальная динамика гуманитарных перемен: социология Шанса для России на достойную и безопасную жизнь ее народов / Р.Г. Яновский. – М.: Кн. и бизнес, 2001. – 424 с.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MUSIQA ILMI.

Ortiqov Oybek Rustamovich

**Pedagogika nazariyasi va tarixi magistratura mutaxassisligi магистранти.БухДУ**

Hozirgi kunda kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish o'quvchilarni ma'naviy yetuk, aqliy barkamol, jismonan sog'lom, milliy, madaniy qadriyatlarga ongli munosabatda bo'ladigan, shuningdek, fan sirlarini chuqur egallagan har tomonlama bilimli insonlar qilib tarbiyalash jamiyatimizni rivojlantirishga qaratilgan barcha vazifalar ichida ustuvor ahamiyat kasb etib turibdi. Ta'limning barcha bo'g'inlarida va fanlar yo'nalishlarida bo'lgani kabi o'quvchi-yoshlarni axloqiy, estetik, ma'naviy jihatdan yetuk va milliy g'oyalarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ularning badiiy tafakkurini o'stirishda "musiqa madaniyati" muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov alohida ta'kidlaydi: "...Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak"<sup>16</sup>.

Musiqa ilmining tarixi juda qadim-qadimlargacha borib taqaladi. Lekin bizning eramizdan avvalgi musiqiy ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Faqat keyingi yillarda

<sup>16</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent.: - O'zbekiston, 1997. 7-bet

olimlarning qidiruvlari natijasida yer ostidan va joylardan topilgan uy ro'zg'or buyumlaridagi musiqa cholg'ularining va ijrochilarning tasvirlari aks ettirilgan suratlar va boshqa ma'lumotlarga tayanib, musiqa ilmining juda qadim tarixga ega ekanligini guvohi bo'lamiz.

Musiqa yunoncha **mousiche**-so'zdan olingan bo'lib, muzalar san'ati, ilhom parilari san'ati, tovushlar san'ati degan ma'nolarni anglatadi.

XIII - XIV asrlardagi O'rta Osiyo xududidagi o'zaro nizolar madaniyatning taraqqiy etishiga xalal yetkazdi. Ayniqsa mo'g'ullar istilosi davri (13-asr) da, ya'ni yirik shaharlar, jumladan Buxoro to'la yoki qisman vayronalikka uchragan davrda madaniy hayot susaydi. O'rta Osiyo Temur hokimiyati ostiga birlashtirilishi munosabati bilan XIV asrning ikkinchi yarmidanoq madaniyat va san'atda yangi yuksalish boshlandi. Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movorounnahr juda katta tashqi mavqeyga ega bo'ldi. Arxitektura gullab-yashnadi, davlat poytaxti Samarqand hamda Temurning ona shahri Kesh (Shaqrissabz) ulkan qurilishlar bilan obodonlashtirildi va bezatildi. Bosib olingan Xuroson, Eron, Suriyaning madaniy markazlaridan Temur turli xil hunarmandlar, jumladan musiqachilarni ham keltirgan edi. O'sha davr kishilarining guvohlik berishicha, dabdabali saroy marosimlari musiqa jo'rligida o'tkazilgan. Masalan, hofizi Abro' yozadi: «Xushovoz hofizlar va shirinnavoz sozandalar esa fors namunalari, arab ohanglari, turkiy an'analar, mo'g'ul ovozlari, xitoyliklar (ashula aytish) qonunlari va oltoyliklar o'lchovlari asosida kuy chalib, qo'shiq aytar edilar».

Taniqli olim va musiqachi Abdulqodir avval Temur, keyinchalik esa uning vorislari saroyida xizmat qilgan. U saroy musiqa shakllari bayon qilingan musiqa risolasining muallifidir. Abdulqodir madhiya xarakteridagi («Mayatayn») musiqa asari ham ijod qilgan. Risolada tarje', peshrav va boshqa bir qator bizning davrimizgacha yetib kelgan musiqa janrlari ham eslatib o'tilgan.

Movaraunnahr zaminida Amir Temur asos solgan yangi davlatda yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy muhit Islom madaniyatining Ikkinchi Uyg'onish davri deb e'tirof etiladi. Shunga ko'ra saltanat poytaxtiga aylangan Samarqandga dunyoning turli burchaklaridan atoqli olimlar, hunarmandlar, shoiru san'atkorlar quyilib kela boshladilar. Ular orasida ko'plab hofizu cholg'uchilar, sozandayu go'yandalar ham bor edi.

Saltanatning bosh sozandasi Xoja Abdulqodir Marog'iy bo'ldi. U o'z davridayoq "sohibi advor" ("advor egasi"), "saromadi advor" ("advor ilmining eng oldingi vakili") degan yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan. Temuriylar davri madaniyatining ko'rki hisoblangan Abdulqodir ijodi nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosida katta ahamiyatga ega. Musiqashunoslik borasida XX asrning yirik olimlaridan biri Genri Jorj Farmerning ta'kidlashicha, u Forobiy, Ibn Sino va Safiuddin Urmaviy bilan bir qatorda Sharq musiqa ilmining asosiy ustunlaridan hisoblanadi.

Marog'iy - zamonasining deyarli barcha diniy va dunyoviy ilmlarini egallagan, qomusiy ko'lamdagi shaxs. Olim qalamiga mansub "Zubdat ul-advor", "Maqasid ul-ilqon", "Jome' ul-alqon" va boshqa musiqa risolalari bugungi kunda ham o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Bundan tashqari, u qur'on ilmini o'zlashtirgan mohir hofiz, maxsus diniy qo'shiqlar ijrochisi-go'yanda, xilma-xil asboblarda ijro etadigan zabardast cholg'uchi, arab, fors va turkiy tillarda ijod qilgan shoir va turli janrlardagi musiqiy asarlarning muallifi bo'lgan. So'nggi sohada u shunday bir oliyjanob namunalar ijod qilganki, ularning shon-shuhrati bizning davrimizgacha saqlanib kelgan. Masalan, Marog'iy zamonida "miyatayn" (arabcha lug'aviy ma'nosi ikki yuz) deyiladigan 200 usuldan iborat musiqiyning murakkab shakli joriy etilgan. Marog'iyning o'zi shunday bir "miyatayn" yaratganki, uning dovrug'i keyingi vaqtlarda ham pasaygan emas. Yoki bo'lmasa, u paytlarda klassik musiqaning eng murakkab turlaridan biri - "navbati murattab"(tartiblashgan navbat) bo'lgan. Navbat (lug'atda navbaning ko'plik soni, istiloxda izma-iz keluvchi) murakkab, ko'p qisimli asarni bildiradi. Murattab - "tartiblashgan", "tartibga solingan degan ma'noni ifodalaydi. "Navbati murattab" esa qonun-qoidalari muhimlashgan turkumli asar ma'nosini anglatadi.

Hirotda Temurning vorisi Shohruh saroyida, ayniqsa Samarqandda, Shohruhning o'g'li Ulug'bek saroyida musiqa taraqqiy etdi. Ulug'bek Samarqandni ilmiy va madaniy hayotning markaziga aylantirdi. U shoir va musiqachilarga homiylik qildi. Adabiyot va musiqaga ko'proq

xalq elementlari singdirila boshladi. Turkiy tilda ijod qiladigan shoirlar o'rtasida folkloriga, turkiy xalq ohanglariga qiziqish ortib bordi. «Ma'shuqa turkiy qo'shiqlarini kuylar ekan,- deyiladi g'azallarining birida,- uning mag'rur qo'shig'i qalbinga olov yoqdi». Samarqand shoir va musiqachilarini boshqa shaharning boylari taklif qilardi. Hatto oliy martabali ruhoniylar ham musiqa ishtiroqida ziyofatlarni uyushtirganlar. Biroq, bu odat diniy qoidalarga zid bo'lib, shariat peshvolarining g'azabini keltirardi. XV asrning ikkinchi yarmiga kelib Samarqand o'zining madaniy mavqeyini Hirotda berib qo'ydi. Hirotda adabiyot va san'at- arxitektura, rassomchilik, musiqa yuksaldi. Hirotda madaniy hayotning gullab-yashnashi Alisher Navoiy nomi bilan bog'liqdir. Chunki u shoh Sulton Husayn Boyqaroning o'ng qo'l vaziri bo'lib, shoirlar, musiqachilar, rassomlar, xususan san'atning yuqori baholangan turlaridan biri miniatyura ustalarini rag'batlantirdi va ularga yo'l ko'rsatdi. Alisher Navoiy Hirotda adabiyot, san'at va madaniyatni yuqori darajaga ko'tarilishiga o'z hissasini qo'shdi. Ayniqsa, musiqa madaniyatining rivojida yangi kuylar, qo'shiqlar, musiqiy risolalar yozildi va bastakorlar, hofizlar yetishib chiqdi. Navoiyning iltimosiga binoan Abdurahmon Jomiy «Risolaiy musiqiy» asarini yozdi. Zaynylobiddin al Husayniy «Qonuni ilmi va amaliy musiqiy» («Musiq ilmining amaliy va nazariy qonunlari.») nomli musiqa risolasini yozib, uni Navoiyga bag'ishladi. Abdulqodir Marog'iyning «Maqosid ul alhon» risolasi yozildi. Navoiy o'zining «Majolisun-Nafois» asarida musiqa ilmi bilan ijod qilgan shoirlarni nomlarini tilga oladi. Abdulla Vafoiy, Jomiyning jiyani movlono Muhammad hamda Xoja Abdullo musiqa sohasida ham ijod qilganligi, shu bilan birga Navoiy o'z zamonasining buyuk sozanda bastakori Xoja Yusuf Burxonni eslab, bu zot musiqa ilmi bo'yicha Navoiyning ustozligi haqida ma'lumot beradi. (Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. Jild III. 1948y. 13-112 s.)

XIV-XVI asrlarda asosan madaniyat va san'at sohasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Temuriylar davri madaniy hayotida musiqa san'ati ham alohida o'rin tutgan. Ulug'bek davrida ayniqsa Movarounnahr madaniyati ancha yuksaldi. Ulug'bek Samarqand va Hirotda mashhur buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilar, san'atkorlar doirasida xususan o'sha davrda Sharqda mashhur Muhammad Xorazmiy, Qozizoda Rumi, G'iyosiddin bin Mab'udiy, Ali Qushchi va boshqalar

bilan birga ijod qildi. Abdurauf Fitrat Ulug'bek zamonasida Samarqandda yashab ijod etgan musiqa ilmining namoyondalari haqida ma'lumotlar beradi.

Mashhur musiqashunos Hofiz Darvesh Ali Changiy o'zining «Tuhfat us surur» («Shodlik tuhfasini») asarida Ulug'bek ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergan deydi<sup>17</sup>.

XIV va XV asrlarda ilm fan, madaniyat va san'at sohasida faqat Samarqand va Hirotda emas balki bu davrda Farg'ona, Toshkent, Buxoro, Kesh, Xiva kabi Movarounnahrning boshqa joylarida ham san'atning barcha sohalari kabi musiqa san'ati ham taraqqiy etdi. O'sha davrda Farg'ona hukmdori Umarshayx Boburning otasi) o'z poytaxtiga ko'pgina madaniyat va san'at namoyondalarini to'plashga harakat qiladi. «Boburnoma» asarida Bobur o'sha davrdagi Andijon madaniyatining ravnaqi haqida gapirib, ushbu diyor musiqa namoyondalaridan Xo'ja Yusufni, Vosifiy esa Toshkentlik bastakor, sozanda shoh Husayn haqida ma'lumot beradi. (Boburnoma. Toshkent. 1958. 12.s.). Shunday qilib Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi XIV-XVI asrlarda ilm-fan, madaniyat, san'at, musiqa, naqqoshlik, xattotlik va boshqa sohada katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

Alisher Navoiy «Mezonul-avzon» asarida xalq qo'shiq-chiligining sakkiz turi rivojlanganligini qayd etadi. Bular - tuyuq, changchi, Uirkiy, orzuviy, muhabbatnoma, mustahzod va shu kabilar. Amir Temur davrida san'at va musiqa olamida mashhur bo'lgan siymolardan biri Abduqodir Go'yanda (1334-1435) bo'lib, uning hayotining katta qismi Samarqandda kechgan. Temuriylar davri musiqa san'atida Hirotda ijodiy muhitning o'rnini benihoya katta bo'lgan. Hirotda musiqashunoslari o'z ijodlarida Navoiyning she'r va g'azallaridan keng ijodiy foydalanganlar.

XV asr musiqa ilmi namoyondalaridan biri Najmiddin Kavkabi bo'lib, Darvesh Ali

<sup>17</sup> A.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Samarqand- Toshkent. 1927 yil 58 bet

Changiyning hikoya qilishicha, Kavkabiylar Hirotida tahsil ko'rgan bo'lib, uni Ubaydulloxon tomonidan Hirotidan Buxoroga olib kelinganligi va Kavkabiylar bu yerda o'zining musiqa maktabini yaratib, Xo'ja Muhammad, Rizo Samarqandiy, Xo'ja Hasan Nisoriy, Hasan Kavkabiylar, Boqi Jarroh kabi musiqashunoslarni tayyorlab, o'zining musiqa sohasidagi buyuk musiqa risolasi "Risolai musiqiy" ya'ni "Risola dar bayoni duvozdah maqom" asarini yaratdi.

Darvishali Changiy (to'la ismi: Darvish Aliy Changiy al-Xoqoniy ibn Mirzo Ali Changiy ibn Abdulali Qonuniy ibn Xo'ja Abdullo Muhammad Marvarid; 16-asr, Hirot — 17-asrning 20-y. lari, Buxoro) — musiqashunos, bastakor, sozanda, hofiz va shoir. Yoshligidan musiqaga qiziqib, Xojagiy Ja'far Qonuniy, Ali Do'st Noyi, Amir Masti Qobuziy, Xasan Kavkabiylardan ta'lim olgan. Movarounnaxr va Xuroson madaniy markazlari (Buxoro, Balx, Andijon, Kesh, Samarqand kabi shaharlar)da yashab ijod qilgan. She'rlarini Changiy taxallusi bilan yozgan. Bir qancha qasida, g'azal, ruboiylari va "Risolai musiqiy" asarlari bizgacha yetib kelgan. "Risolai musiqiy"ning 1-nusxasi, 1572; 2-nusxasi "Tuhfatus-surur" ("Shodlik armug'oni") nomi bilan ham mashhur, taxminan 1611, O'zbekiston FA Sharqshunoslik intida saqlanadi, inv. №№ 449, 468. Mazkur risola 16—17-asrlar musiqa madaniyatining asosiy manbai sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega. Fors tilidagi 12 bobdan iborat bu qo'lyozma Jomiy va Kavkabiylar risolalari hamda Husayn Oxun, Imom Kuli Udiy, Zaytun G'ijjakiy kabi musiqa ustodlarining asarlaridan to'plangan ma'lumotlar asosida yozilgan. Muallif Amir Xusrav Dehlaviyning musiqiy qarashlarini ham o'z asariga kiritgan. Unda 16—17-asrlardagi musiqa hayoti, bastakorlik san'ati, musiqa sozlari, musiqiy-nazariy (O'n ikki maqom, iyqo' va b.) va ijrochilik masalalari o'zining ifodasini topgan. Risolaning tarixiy boblari adabiy tazkiralarda uslubida yozilib, Movarounnahr va Xuroson musiqa arboblarning tarjimai holi, afsonaviy va tarixiy shaxslar (podshoh Bahrom va Dilorom Changiydan boshlab, Firdavsiy, Rudakiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, sulton Husayn Boyqaro va o'zining hamasrlari)ga bag'ishlangan<sup>18</sup>. Darvishali Changiy ulug' bastakor sifatida naqsh, amal, savt, peshrav shaklidagi kuylar yaratgan.

Amir Temur va Temuriylar davlatning inqirozi, madaniyat, san'at jumladan musiqa san'ati ham tushkunlikka tushishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kundalik hayotimizda, jamiyatimizning madaniyatini vujudga keltirishda, uning ma'naviy hayotida, davrimizga munosib har tomonlama barkamol badiiy didli, sog'lom fikrli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda musiqa san'atining o'rni ahamiyatli bo'lib kelmoqda. Jumladan, temuriylar davrida yaratilgan kuy va qo'shiqlar kishi qalbini o'ziga rom qilib, asrlar osha xalq uchun ilhom manbai bo'lib va insonlarga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda.

Amir Temur davrida bebaho musiqa durdonalarini yaratilganligi hozirgi milliy musiqamizga asos bo'lish bilan bir qatorda, doimo go'zallikka tashnalik sezgan inson qalbi to'ridan o'rin olib kelmoqda. Inson qalbi go'zallikka tashnalik sezish bilan bir vaqtda go'zallik muhitidan ozuqa oladi va shakllanadi.

Musiqa - bu san'at, san'at esa mo'jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san'at vositasidagina kirish mumkin" degan edi sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino.

San'at – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. San'atning turli ko'rinishlari voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o'zlariga xos usullar yordamida aks ettiradi (Masalan, musiqa – tovushlar, ularning o'zaro bog'lanishi, uyg'unligi orqali). Lekin shu bilan birga, ular o'rtasida ma'lum umumiylik mavjud. Bu umumiylik shundan iboratki, ularning hammasida voqelik badiiy - obraz tarzda aks ettiriladi.

Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida san'at, musiqa alohida o'rin tutadi. Shuningdek, san'at inson ma'naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovshi vositalardan biridir. San'at insoniyatning ezgulik tomon harakati uchun zarur bo'lgan o'zaro muloqotlar vositasi bo'lib, turli qit'alar va davlatlarni o'zaro bog'laydi.

---

<sup>18</sup> A.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Samarqand- Toshkent. 1927 yil 58 bet

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. 2017-2021 yillar O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi.
2. Mirziyoyev SH Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: O'zbekiston 2018
4. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ulaning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus.
5. Karimov I.Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008
6. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T.: O'zbekiston. 2000.
7. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2000
8. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. T.: -Ma’rifat. 1997
9. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. Jild III. 1948y
10. “Ma’rif va madaniyat” jurnali. Baku. 1923 y. N 8.
11. A.Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Samarqand- Toshkent. 1927 yil
12. M.M. Xayrullayev. Forobiy. Toshkent. 1963.
13. N.Shodmonov. Temuriylar davrida musiqashunoslik. Toshkent. 1995.

## **ВОЗМОЖНОСТИ КУРСА БЖД В ВОСПИТАНИИ ГРАЖДАНСТВЕННОСТИ У СТУДЕНТОВ**

**И.С. Кашина**

**аспирант кафедры педагогики и психологии ЧГИК**

**Аннотация:** В статье указывается на воспитательный потенциал дисциплины «Безопасность жизнедеятельности». Выделяются принципы, на которые должен опираться преподаватель, формы аудиторной и внеаудиторной работы со студентами, наиболее эффективные группы методов, содействующие воспитанию личностных качеств.

**Ключевые слова:** гражданственность, учебная дисциплина «Безопасность жизнедеятельности», знания, умения.

В Федеральном государственном образовательном стандарте среднего профессионального образования предусматривается изучение дисциплины «Безопасность жизнедеятельности». Из основных требований к знаниям, умениям при изучении данной дисциплины можно особо выделить

**знания:** принципов обеспечения устойчивости объектов экономики, прогнозирования развития событий и оценки последствий при техногенных чрезвычайных ситуациях и стихийных явлениях, в том числе в условиях противодействия терроризму как серьезной угрозе национальной безопасности России; основных видов потенциальных опасностей и их последствия в профессиональной деятельности и быту, принципы снижения вероятности их реализации;

**умения:** предпринимать профилактические меры для снижения уровня опасностей различного вида и их последствий в профессиональной деятельности и быту; владеть способами бесконфликтного общения и саморегуляции в повседневной деятельности и экстремальных условиях военной службы; оказывать первую помощь пострадавшим; порядок и правил оказания первой помощи пострадавшим.

Основными целями курса «Безопасность деятельности» являются: формирование и развитие у студентов высоких моральных качеств, психологической устойчивости к опасностям и чрезвычайным ситуациям, бережного отношения к окружающей среде и своему здоровью, образу жизни, к своей Родине, готовности к ее защите.



Определение параметров стандартной изометрии помощи способа прямоугольного вспомогательного проецирования	
<b>Азимов С.С.</b> Способы восприятия мира архитектурных памятников	234
<b>ТошоваГ, Махмудова Д.</b> Умуминсоний қадриятлар муштараклигида баркамол шахсни шакллантириш имкониятлари	236
<b>Мулюкова А.Г.</b> Развитие аналитических умений: теоретический аспект	238
<b>Очилов З.С.</b> Ёшлар тарбиясининг маънавий-ахлоқий ривожланиш босқичлари	242
<b>Рамазанова Н., Мавлонова Т</b> Памятники Бухары – источник воспитания молодого поколения	244
<b>Жураева Н.</b> Махалла - как очаг гармоничного развитие молодого поколения	247
<b>Абдуллаев К.Ф.</b> Ремесло-национальное отражение узбекского народа	249
<b>Бобомуродова Н.Ж.</b> Народная педагогика как источник воспитания молодого поколения	251
<b>Юлдашева М.М.</b> Развитие толерантности на основе национальных традиций у студентов медико-педагогического направления	252
<b>Турсунова О.Ф.</b> Педагогик мулоқотмаданияти	254
<b>Ochilova M.O, ShamsullayevaR</b> Oilada sog'lom, man'aviy-axloqiy muhit yaratishning muhim shart-haroitlari	259
<b>Алимов А.Т.</b> Истоки зарождения культуры в БНСР	260
<b>Нусратов А.Н, БахромоваМ.</b> “Дастур ул-Мулук” асарида ёритилган педагогик фикрлар мазмуни	262
<b>Ширинова С., Рамазонава С.</b> Соғломболаниоиладатарбиялашжараёнидатарихийманбаларданфойдаланишимкониятлари	264
<b>Хоҗиёева М.Ш, Нақимова Ш.И</b> Sharq mutafakkirlari ta'limotida ma'naviy-axloqiy madaniyat masalalari	266
<b>Кобилжонов К.К, Фозилова З.Ж.</b> Идея совершенной личности в произведениях великих мыслителей Востока	269
<b>СЕКЦИЯ 4. КУЛЬТУРА, ИСКУССТВО И ОБРАЗОВАНИЕ ГЛАЗАМИ МОЛОДЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ</b>	
<b>Панасенко С.Л.</b> Особенности формирования экологической культуры младших школьников в современной системе образования	272
<b>Чумакова К.П.</b> Культурно-спортивные праздничные события: контекстный подход	274
<b>Ortiqov O.R</b> Amir TemurvaTemuriylar davrida musiqa ilmi	277
<b>Кашина И.С.</b> Возможности курса БЖД в воспитании гражданственности у студентов	281
<b>Колбасина Л.В.</b> Роль семьи в развитии семейных ценностей	283
<b>Нурмухамбетова А.С.</b>	286